

PUL OQIMLARI TO'G'RISIDAGI HISOBOTNING ASOSIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI

Qosimova Nilufarxon Chinberdiyevna

Assistent o'qituvchi

Andijon fakulteti

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

E-mail:qosimovanilufar228@gmail.com

ORCID:0009-0003-5741-0852

ANALYSIS OF THE MAIN INDICATORS OF THE REPORT ON CASH FLOWS

Kasimova Nilufarkhan Chinberdiyevna

Assistant teacher

Andijan faculty

Tashkent State University of Economics

E-mail:qosimovanilufar228@gmail.com

ORCID:0009-0003-5741-0852

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonaning pul oqimlari to'g'risidagi hisobotining asosiy ko'rsatkichlari tahlili, uning ahamiyati va korxona faoliyatini baholashdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Unda pul oqimlari to'g'risidagi hisobot shaklini tuzishning to'g'ri va egri usullari, shuningdek, uning komponentlari batafsil tahlil qilinadi. Pul mablag'lari xarakati to'g'risidagi hisobot korxonaning pul mablag'larini ma'lum bir vaqt davomida operatsion faoliyati, investitsiya va moliyaviy faoliyatdan qancha miqdorda pul mablag'lari kirim va chiqim bo'lganligini ko'rsatib beruvchi hisobotdir. Ushbu hisobot 2 xil usulda to'g'ri va egri usullarda tuziladi. To'g'ri va egri usullarda operatsion faoliyatdan pulning kirim va chiqimi bir hil aniqlanadi. Korxonalar operatsion, investitsiya va moliyaviy faoliyati bo'yicha pul mablag'larin xarakatini o'z faoliyatiga mos ravishdada taqdim etadi. Faoliyat turi bo'yicha tasniflash moliyaviy hisobot foydalanuvchilarga ushbu faoliyatlarning tashkilot moliyaviy holatiga va uning pul mablag'lari hamda pul mablag'lari ekvivalentlarining summasiga ta'sirini

baholash imkon beradigan ma'lumot bilan ta'minlaydi. Bu ma'lumotdan ushbu faoliyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni baholash uchun ham foydalanish mumkin.

Abstract: this article will consider the analysis of the main indicators of the report of the enterprise on cash flows, its significance and its role in assessing the activities of the enterprise. It analyzes in detail the correct and curved methods of drawing up a form of reporting on cash flows, as well as its components. The report on the cost of funds is a report that indicates how much money from the operating activities of the Enterprise, Investment and financial foality during a certain period of time was credited and deducted. This report is compiled in 2 different ways in correct and curved ways. In the correct and curved methods, the input and output of money from operational activities are determined uniformly. Enterprises provide a cash balance in terms of operational, investment and financial activities in accordance with their activities. Classification by type of activity financial report provides users with information that allows them to assess the

impact of these activities on the financial condition of the organization and its amount of cash and monetary equivalents. This information can also be used to assess the correlation between these activities.

Kalit so'zlar: Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni to'g'ri va egri usullari; xarajatlar; pul oqimlarining kirimi va chiqimi; operatsion faoliyatda pul oqimlari; moliyaviy faoliyatda pul oqimlari; investitsion faoliyatda pul oqimlari.

Keywords: correct and curved methods of reporting on cash flows; expenses; entry and exit of cash flows; cash flows in operational activities; cash flows in financial activities; cash flows in investment activities.

Kirish. Korxona faoliyatining samaradorligini baholashda pul oqimlari to'g'risidagi hisobot muhim o'rin tutadi. Ushbu hisobot korxonaning ma'lum bir davr mobaynida naqd pul va naqd pul ekvivalentlari xarakati haqida keng qamrovli ma'lumot beradi. Pul oqimlari hisobotini tahlil qilish korxonaning to'lov qobiliyati, likvidligi va moliyaviy barqarorligini baholash imkonini beradi. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni samarali tahlil qilish nafaqat mavjud holatni aks ettiradi, balki kelajakdagi moliyaviy qarorlar uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi iqtisodiy sharoitda korxonaning moliyaviy holatini to'g'ri baholash, ayniqsa, bozorning o'zgaruvchanligi va raqobatning kuchliligi

sababli, juda dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi korxonaning pul oqimlari to'g'risidagi hisobotining asosiy ko'rsatkichlari tahlilini o'rganish, uning korxona moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi rolini asoslash hamda hisobotning turli jihatlarini tahlil qilishdir. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yilgan: pul oqimlari hisobotini shakllantirishning to'g'ri va egri usullarini o'rganish; pul oqimlarining operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatdagi o'zgarishlarini tahlil qilish; pul oqimlari ko'rsatkichlarining korxona samaradorligiga ta'sirini baholash.

Material va metod. Pul oqimlari tushunchasi moliyaviy tahlil va korporativ boshqaruvda markaziy o'rin tutadi. Ilmiy adabiyotlarda pul oqimlari korxonaning ma'lum davr ichida kelib tushgan va chiqib ketgan pul mablag'lari harakati sifatida talqin qilinadi. **Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari doirasida** pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish va talqin qilishning nazariy asoslari International Accounting Standards Board tomonidan ishlab chiqilgan **International Financial Reporting Standards** tizimida, xususan, **IAS 7 Statement of Cash Flows** standartida belgilangan.

Shularni inobatga olib pul oqimlari tushunchasini yoritib bergan horijiy va mahalliy olimlar tomonidan berilgan ta'riflar 1-jadvalda keltirilgan:

1-jadval

Pul oqimlarining asosiy ko'rsatkichlari tushunchasining ta'riflanishi

Mualliflar	Ta'rif
Edward Altman (1968 y.)	Moliyaviy ko'rsatkichlar qatorida pul oqimlariga yaqin indikatorlar korxonaning moliyaviy barqarorligini baholash vositasi sifatida qo'llash pul oqimlari ko'rsatkichlarining amaliy ahamiyatini oshiradi.
Richard Brealey (1981 y.)	Korxona qiymatini aniqlashning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

	• Diskontlangan pul oqimi (DCF) modeli • Sof pul oqimi (Net Cash Flow) • Erkin pul oqimi (Free Cash Flow)
Michael C. Jensen (1986 y.)	Erkin pul oqimi - menejerlar va aksiyadorlar manfaatlarini ziddiyati nuqtai nazaridan tahlil qilinadigan pul oqimlari korporativ boshqaruvning muhim instrumentidir.
Eugene F. Brigham (1998 y.)	Operatsion pul oqimi, erkin pul oqimi va pul oqimlarini rejalashtirish ko'rsatkichlari moliyaviy menejmentning asosiy elementlari hisoblanadi.
Gavriil V. Savitskaya (1995 y.)	Pul oqimlarini korxonaning ma'lum davr mobaynida pul mablag'larining kirimi va chiqimi harakati bo'lib, pul oqimlari tahlili korxonaning to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini aniqlashning muhim vositasidir.
Viktor Kovalyov (1997 y.)	Pul oqimlarini moliyaviy resurslar harakatining dinamik ko'rsatkichi sifatida izohlanib, foyda ko'rsatkichi har doim ham real pul oqimini aks ettirmaydi, shu sababli likvidlikni baholashda aynan pul oqimlari muhim hisoblanadi.
Igor Blank (1998 y.)	Pul oqimlarini boshqaruv obyekti bo'lib - bu korxonaning xo'jalik faoliyati jarayonida shakllanuvchi va boshqariluvchi pul mablag'lari harakatidir.
Anatoliy Sheremet (2002 y.)	Pul oqimlarini moliyaviy hisobotning alohida obyekti bo'lib, korxonaning operatsion samaradorligi va investitsion faolligini baholash uchun xizmat qiladi.
M.Mamatqulov (2002 y.)	Pul oqimlari - moliyaviy tahlilning ko'rsatkichi bo'lib, korxona to'lov qobiliyatini aniqlash mezonidir.
B.Qosimov (2005 y.)	Pul oqimlarini korxona moliyaviy menejmentining asosiy elementi bo'lib, korxonaning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyati natijasida yuzaga keladigan pul tushumlari va to'lovlari yig'indisidir.
B.O.Tursunov (2008 y.)	Pul oqimlari korporativ moliyaning bahosi hisoblanib, ular korxona qiymatini shakllantiruvchi asosiy omildir.
A.A.Karimov (2016 y.)	Pul oqimlari – likvidlikni boshqarish mexanizmi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish va talqin qilishning nazariy asoslari International Accounting Standards Board tomonidan ishlab chiqilgan **International Financial Reporting Standards** tizimida, xususan, **IAS 7 Statement of Cash Flows**

standartida belgilangan. IAS 7 pul oqimlari hisobotini tuzish va taqdim etishning asosiy qoidalarini belgilaydi. Mazkur standartga ko'ra pul oqimlari quyidagi uch yo'nalish bo'yicha tasniflanadi:

- **Operatsion faoliyat pul oqimi**
- **Investitsion faoliyat pul oqimi**
- **Moliyaviy faoliyat pul oqimi**

Standartda operatsion pul oqimini aniqlashning to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita usullari ko'rsatilgan[1]. Ilmiy adabiyotlarda aynan operatsion pul oqimi korxonaning asosiy faoliyat samaradorligini ifodalovchi eng muhim ko'rsatkich sifatida e'tirof etiladi.

Operatsion pul oqimi ko'rsatkichlari talqini. Kieso, Donald E., Weygandt, Jerry J. va Warfield, Terry D. o'z ilmiy asarlarida operatsion pul oqimini sof foydadan ko'ra ishonchliroq moliyaviy indikator sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, sof foyda hisob siyosatiga bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin, ammo pul oqimi real pul harakatini aks ettiradi. Shuningdek, operatsion pul oqimi korxonaning:

- joriy majburiyatlarini qoplash qobiliyati,
- dividend to'lash imkoniyati,
- investitsiya qilish salohiyati haqida muhim axborot beradi[2].

Investitsion va moliyaviy pul oqimlari tahlili. Brigham, Eugene F. va Houston, Joel F. investitsion hamda moliyaviy pul oqimlarini korxonaning uzoq muddatli strategiyasi bilan bog'laydi[3]. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra:

- **Manfiy investitsion pul oqimi** – ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish yoki asosiy vositalarni yangilash belgisi bo'lishi mumkin.
- **Ijobiy moliyaviy pul oqimi** – tashqi moliyalashtirish (kredit yoki aksiyalar emissiyasi) jalb etilganini

bildiradi. Demak, ushbu ko'rsatkichlar korxonaning rivojlanish bosqichini aniqlashda muhimdir.

Pul oqimlari asosidagi moliyaviy koeffitsiyentlar - zamonaviy moliyaviy tahlilda pul oqimlari asosida quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

- Operatsion pul oqimi / Joriy majburiyatlar
- Operatsion pul oqimi / Umumiy qarz
- Erkin pul oqimi (Free Cash Flow)
- Pul oqimi rentabelligi koeffitsiyenti

White, Gerald I. va Sondhi, Ashwinpaul C. tadqiqotlarida pul oqimlari koeffitsiyentlari korxona to'lov qobiliyatini aniqlashda yuqori aniqlikka ega ekanligi ta'kidlangan[4].

Milliy iqtisodiy adabiyotlarda yondashuv. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar pul oqimlari hisobotini moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va bankrotlik xavfini oldindan aniqlash vositasi sifatida baholaydilar. Milliy darsliklarda operatsion pul oqimi asosiy ko'rsatkich sifatida ajratilib, uning ijobiy bo'lishi korxona faoliyatining barqarorligini ifodalashi qayd etilgan[5] Shuningdek, pul oqimlarini prognozlash va byudjetlashtirish masalalari ham alohida ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanmoqda.

Natijalar. Davlatimiz mustaqilligidan so'ng O'zbekistonda mavjud buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisoboti tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IAS, IFRS) talablariga mos holda tashkil qilish dolzarb masalalaridan biriga aylanib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan ham tadbirkorlik sub'yektlarining faoliyatilari to'g'risidagi

ishonchli axborotlarni ta'minlash zarurligi va ushbu vazifani bajarishda buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini aniq tahlil qilish muhim rol o'ynaydi. Korxonalarining hisobot davri ko'rsatkichlari ular tomonidan tuzilgan moliyaviy hisobot shakllari ko'rsatkichlarida nomoyon bo'ladi. Bu ko'rsatkichlar korxonaning barqarorligini, rentabelligini va to'lovga layoqatliligi kabi elementlardan iborat. Shu elementlarni o'qish orqali korxonalarga investitsiyalarni jalb qilish, ularni kreditlar bilan ta'minlash kabi jarayonlar tezlashadi. Chunki xalqaro standartlar asosida tuzilgan hisobotlar shaffof, ma'lumotlari ochiq tarzda axborot qiziquvchilarga taqdim qilinmoqda.

Pul oqimlarini monitoring va boshqarish.

Pul oqimlarini monitoring qilish va boshqarish har bir kompaniyaning muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Ushbu jarayon ko'plab vositalar va uslublarni o'z ichiga oladi:

1. Pul oqimlari hisobotlari: Kompaniya har oyda yoki har kvartalda pul oqimlari hisobotini tuzishi kerak. Ushbu hisobot operatsion, investitsiya va moliyaviy pul oqimlarini aks ettiradi va ularni tahlil qilish orqali kompaniya moliyaviy holatini baholash imkonini beradi.

2. Budjet rejalashtirish: Budjet yaratish orqali kompaniya o'z kelajakdagi pul oqimlarini rejalashtirishi va nazorat qilishi mumkin. Bu jarayonning maqsadi pul oqimlarini optimallashtirish va xarajatlarni minimallashtirishdir.

3. Likvidlikni boshqarish: Kompaniya darhol to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatini ta'minlash uchun likvidlikni boshqarishni o'z ichiga oladi. Bu, o'z

navbatida, muammolar yuzaga kelmasligi uchun shartlarini yaratishi zarur.

4. Strategik qarorlar qabul qilish: Pul oqimlarini tahlil qilish orqali kompaniya strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu, o'z navbatida, muammolarni aniqlash, bozordagi o'zgarishlarga moslashish va raqobatchilar bilan kurashish uchun zarur.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning asosiy maqsadi – sub'yektning moliyaviy faoliyati qanday pul oqimlarini keltirib chiqarganini aniqlash, uning to'lovga qobiliyati va moliyaviy barqarorligini baholashdir. Bu hisobotni shakllantirishda ikki asosiy usul qo'llaniladi: **bevosita usul** va **bilvosita usul**.

Bevosita usulda pul oqimlari hisobot davridagi real pul tushumlari va to'lovlari asosida shakllantiriladi. Bu usulda operatsion faoliyat bo'yicha barcha asosiy pul tushumlari va chiqimlari alohida ko'rinishda ko'rsatiladi. Bevosita usul orqali tuzilgan hisobot foydalanuvchilarga real pul oqimlarining manbai va yo'nalishi haqida to'g'ridan-to'g'ri tasavvur beradi.

Bilvosita usul eng ko'p qo'llaniladigan va buxgalteriya amaliyotida keng tarqalgan yondashuvdir. Bu usulda operatsion faoliyatdan olingan sof foyda asos qilib olinadi va u naqd bo'lmagan elementlar va balansdagi o'zgarishlar asosida moslashtiriladi. Bu usul ayniqsa yirik korporatsiyalar, xalqaro kompaniyalar va moliyaviy tahlilchilar tomonidan afzal ko'riladi. Chunki u foyda raqamining qanday qilib real pul oqimiga aylanishini ko'rsatadi va foyda hamda pul oqimi o'rtasidagi farqni tahlil qilish imkonini beradi. Har ikkala usulni taqqoslanishi 2-jadvalda ko'rish mumkin.

2-jadval

Operatsion faoliyatda pul oqimlarini bevosita va bilvosita usullarda tayyorlanishini taqqoslash:

Ko'rsatkichlar	Bevosita usul	Bilvosita usul
Yo'ndashuv	Naqd pul harakatlarini to'g'ridan-tog'ri aks ettiradi	Faoydadan kelib chiqib o'zgartirishlar asosida
Asosiy ustunligi	Real tushumlar va chiqimlar ko'rinadi	Moliyaviy tahlil uchun foydali
Amalga oshirish darajasi	Mehnat talab qiladi, murakkab	Osonroq, avtomatlashtirishga mos
Moliyaviy tahlilga yaroqliligi	Kamroq	Yuqori
Soliq nazorati uchun qulayligi	Yuqori	Nisbatan past

*Muallif ishlanmasi

Munozara. Pul oqimlari (cash flows) tushunchasi korporativ moliya va buxgalteriya hisobi nazariyasida bosqichma-bosqich rivojlangan. Quyida ushbu tushunchaning shakllanishi va takomillashuvi asosiy ilmiy manbalar hamda ularning nashr yillari kesimida bayon etiladi. **1977-yil** – Pul oqimlari to'g'risidagi dastlabki xalqaro standart (IAS 7) qabul qilindi. **1992-yil (1994-yildan kuchga kirgan)** – qayta ko'rib chiqilgan **IAS 7 Statement of Cash Flows** tasdiqlandi. Standart ishlab chiquvchi organ – International Accounting Standards Board, u **International Financial Reporting Standards** tizimi doirasida faoliyat yuritadi. 2000-yillardan boshlab ilmiy tadqiqotlarda quyidagilar isbotlandi:

- Operatsion pul oqimi sof foydaga nisbatan barqarorroq ko'rsatkich hisoblanadi.
- Pul oqimlari asosida korxona qiymatini baholash (DCF modeli) eng ishonchli metodlardan biri sifatida qo'llaniladi.

- 2010-yillardan boshlab pul oqimlari moliyaviy inqirozlarni prognozlash va risklarni boshqarishda keng qo'llanilmoqda.
- 2020-yillarda startup va innovatsion loyihalarni baholashda erkin pul oqimi modeli ustuvor metodga aylandi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham pul oqimlari hisobotini tahlil qilishning ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar. Ularning ilmiy izlanishlarida korxonaning moliyaviy barqarorligini baholashda operatsion pul oqimining ustuvorligi qayd etiladi hamda pul oqimlari prognozini tuzish zarurligi ko'rsatiladi.

Xulosa. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot korxona moliyaviy holatini tahlil qilish va baholash uchun muhim hisobot shakli hisoblanadi. U korxonaning pul mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish qobiliyatini yaqqol ko'rsatib beradi. Ushbu hisobotni to'g'ri va egri usullar yordamida tahlil qilish, shuningdek, uning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatdagi komponentlarini

o'rganish korxonaning likvidligi, to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligi haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sof foyda ko'rsatkichi ijobiy bo'lgan taqdirda ham, salbiy pul oqimlari korxona uchun jiddiy moliyaviy xavf tug'dirishi mumkin. Operatsion faoliyatdan keladigan barqaror ijobiy pul oqimi korxonaning sog'lom moliyaviy holatidan dalolat beradi. Investitsion faoliyatdagi pul oqimlari korxonaning o'sish va rivojlanish strategiyalarini, moliyaviy faoliyatdagi

oqimlar esa uning kapital tuzilmasini va moliyalashtirish manbalarini aks ettiradi. Kelgusidagi tadqiqotlar pul oqimlari hisobotini sanoatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda chuqurroq tahlil qilishga, shuningdek, pul oqimlarini prognozlash va ularni samarali boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilishi mumkin. Bu esa korxonalarga moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va uzoq muddatli istiqbolda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. 2016 y. 13 aprel. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 404 – son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020yil 24 fevraldagi 4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.
4. Moliya vazirligining "Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga bo'yicha xalqaro moliyaviy hisobotlar tayyorlash qoidalari"
7. 2015 International Financial Reporting Standards IFRS® (Red Book) is the only official printed edition of the consolidated text of the IASB's authoritative pronouncements as issued at 1 January 2015. 978-1-909704-71-8 SET (2 vols)
International Financial Reporting Standard - Annual Improvements to IFRSs 2012-2014 Cycle (September 2014). ISBN 978-1-909704-59-6. 978-1-909704-59.
8. Karimov A.A, Ibragimov A.K, "Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari". Darslik. T. "Moliya". 2019. – 310 b.
9. Brealey R., Myers S., Allen F. Principles of Corporate Finance. – McGraw-Hill, 2019.



10. Ross S., Westerfield R., Jordan B. Fundamentals of Corporate Finance. – McGraw-Hill, 2020.
11. Horngren C., Harrison W., Oliver S. Financial Accounting. – Pearson, 2019.
12. Abdullayev M., Raxmonqulov SH. Korxona moliyasini boshqarish. – TDIU nashriyoti, 2020.
13. IFRS Foundation. IAS 7 – Statement of Cash Flows. – 2023 yilgi tahrir.
14. Damodaran A. Applied Corporate Finance. – Wiley, 2021.